

2026-yil 2-aprel

Ochiq muloqot: yoshlar g'oyalari va sanoat imkoniyatlari uyg'unligi



2026-yil 24-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, muammo va takliflarini bevosita o'rganish hamda qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga qaratilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan edi.



Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bugun "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining O'zkiyosanoat va Yangi O'zbekiston Universiteti talabalari bilan ochiq muloqoti tashkil etildi. Uchrashuv samimiy va amaliy ruhda o'tib, yoshlarning bilim va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Muloqot davomida universitet bitiruvchilari, Xitoyda o'tkazilgan xalqaro GLOBEX 2025 dasturi ishtirokchilari Shaxzodbek Samandarov va Otabek Atabayevlar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.



Ular dastur doirasida olgan bilim va ko'nikmalar, shuningdek, xalqaro muhitda orttirilgan tajribaning ahamiyati haqida batafsil taqdimot o'tkazdilar. Shuningdek, universitetning 2-bosqich talabasi Shohrux Sunnatov kimyo va materialshunoslik muhandisligi yo'nalishida ishlab chiqilayotgan innovatsion startap loyihasi taqdimotini namoyish etdi. Loyiha zamonaviy texnologiyalar asosida yangi materiallar yaratish va ularni sanoatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgani bilan e'tiborga loyiq bo'ldi.

Taqdimotlar davomida ko'tarilgan g'oya va takliflar "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati tomonidan yuqori baholandi. Xususan, yoshlarning ilmiy-amaliy izlanishlarga bo'lgan qiziqishi, innovatsion fikrlashi va global tajribalarga intilishi alohida e'tirof etildi.



Uchrashuvda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning startap tashabbuslarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, sanoat va ta'lim o'rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlash masalalariga alohida to'xtalib o'tildi.



Tadbir yakunida kimyo yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "O'z kimyosanoat" AJning esdalik sovg'alari topshirildi.



Bunday muloqotlar nafaqat yoshlarni ruhlantiradi, balki ularning g‘oyalarini amaliyotga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam ko‘prik yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.







source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ochiq-muloqot-yoshlar-g-oyalari-va-sanoat-imkoniyatlari-uyg->